

Symmetric and asymmetric phenomena in lexemes expressing auditory ability in English and Uzbek languages

Sherali SHOKIROV¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

auditory ability,
symmetric phenomena,
asymmetric phenomena,
English language,
Uzbek language,
linguistics,
lexical analysis.

ABSTRACT

This article focuses on the study of symmetric and asymmetric phenomena in lexemes expressing auditory ability in English and Uzbek languages. It examines grammatical and semantic similarities and differences between these languages. The article also explores various cultural and linguistic factors associated with auditory abilities.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp12-18>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek tillarida eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarida simmetrik va asimmetrik hodisa

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

eshitish layoqati,
simmetrik hodisa,
asimmetrik hodisa,
ingliz tili,
o'zbek tili,
lingvistika,
leksik tahlil.

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalardagi simmetrik va asimmetrik hodisalarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ushbu tillar o'rtasidagi grammatik va semantik o'xshashliklar hamda farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, eshitish qobiliyati bilan bog'liq turli madaniy va lingvistik omillar ham ko'rib chiqiladi.

¹ Professor, Andijan State University. E-mail: Sheralis790@gmail.com

Симметричные и асимметричные явления в лексемах, выражающих слуховую способность в английском и узбекском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

слуховая способность,
симметричные явления,
асимметричные явления,
английский язык,
узбекский язык,
лингвистика,
лексический анализ.

Данная статья посвящена изучению симметричных и асимметричных явлений в лексемах, выражающих слуховые способности в английском и узбекском языках. В статье рассматриваются грамматические и семантические сходства и различия между этими языками. Также анализируются различные культурные и лингвистические факторы, связанные со слуховыми способностями.

Ma'lumki, tilshunoslik tadqiqotining zamonaviy yo'nalishlari – kognitologiya, lingvokulturologiya, psixolingvistik-somatika tilda inson omilini o'rganish (antropotsentrikning namoyon bo'lishi sifatida) va voqelikni idrok qilish doirasida hal qilinadi. Eshitish layoqatini idrok etish ham, boshqa voqelik, hodisalar, atrofdagi dunyoning simmetrik va asimmetrik munosabatlarini inson faoliyati jarayonida tananing ma'nolari tilda qanday ifodalanishi e'tiborga molikdir.

Professor M.B. Primova rus tilida eshitish persepsiyasi fe'llarining leksik-semantik guruhlarini inobatga olgan holda, rus tilidagi eshitish persepsiyasi fe'llari ma'nosida quyidagi farqlovchi semalarni ajratadi: uzoqdan (quloq solmoq), persepsiya yakuni (tinglamoq, eshitmoq), bir qancha vaqt (tinglab turmoq), vaqti-vaqti bilan (poylamoq), davomiy (muttasil eshitmoq, eshitib to'ymaslik), intensiv, diqqat bilan (diqqat bilan eshitmoq, astoydil eshitmoq, termulib eshitmoq), kuchaytirish (sinchiklab eshitmoq, razm bilan eshitmoq), kengaytirish bilan (eshitib qotib, og'zi ochilib, mahliyo bo'lib qolmoq), diqqat bilan, oxirigacha (diqqat bilan eshitib topmoq, pinxona eshitmoq, bilib olmoq), boshidan to oxirigacha diqqat bilan eshitmoq (ko'p fe'lli birikmalar), yaqindan va uzluksiz (ko'p fe'lli birikmalar).

Kognitiv tilshunoslik yo'nalishida til hodisalaridan bo'lmish eshitish layoqati strukturasini o'rganishda quyidagi holatlarni e'tiborda tutish lozim:

- idrok elementlari majmuasini o'rganishda mazmundan shakl tomonga qarab semantik funksiyalari asosida tahlil qilish; (eshitmoq-payqamoq), (to hare-to find out);
- idrok markazi (yadro yoki dominant so'z)lardagi belgilarning to'laqlonliligi va maksimal darajadagi intensivligi va markazdan uzoqlashgan sari (periferiyada) bu belgilarning susayib borishi; (eshitish- sukut saqlash), (to hear- to listen);
- idrok elementlarining o'zaro ta'sir kuchi, ularning simmetrik va asimmetrik munosabatlari, umumiy segmentlarning mavjudligi, maydon strukturasining dinamik holati: (tomosha qilib – tushunmoq) (to Watch- to understd);

Eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarning strukturasini bir butunlikni tarkibiy qismlarga ajratish va ular o'rtasidagi bog'liqlik orqali aniqlanadi. Simmetrik va asimmetrik munosabat esa, ma'noning o'zaro munosabatlari orqali aniqlangan segmentatsiya yordamida harakterlanadi. Ushbu leksemalarga mansub maxsus vositalarning har biri o'zining grammatik xarakterdagi, yoki leksik xarakterdagi, yoxud sintaktik xarakterdagi ma'nosiga ega.

Bizning fikrimizcha, birinchidan, eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarning rolini ma'lumotlar yoki bilimni qabul qilishga, ikkinchidan, inson imkoniyatidan kelib chiqqan holda muayyan harakat obyektida "eshitish va aqliy" (inson) diqqatni bir joyga jamlash, imkon darajasida ularni ko'rish orqali kuzatish yoki ularni aqlan nazorat qilish va tahlil qilishga asoslangan.

Ushbu ma'lumlardan kelib chiqib, muhim xulosa chiqarish mumkin: semantik hukmronlik tabiatiga ko'ra ikkita qarama-qarshi guruh mavjud – fizik harakatlarning predmetlari va aqlga asoslangan narsalar, lekin eshitish persepsiyasining bunday fe'llari aralash semantikalar bilan bog'liq bo'lgan predikatlar sifatida ko'rib chiqiladi, chunki uning ma'nosi jismoniy (aniqrog'i – fizik-fiziologik) va mental komponentlardir. Bunday holatda, eshitish layoqatini ifodalovchileksemalar – persept nuqtai nazaridan obyektini yoki butun perseptiv voqelikni, idrok subyektining eshitish maydoniga kiritish qat'iy jismoniy sifatida tavsiflanmaydi, chunki vaziyatning tegishli tomoni persepsiyaga olib kelmaydi, ammo murakkabroq simmetrik va asimmetrik munosabatlariga taxmin qilinadi.

Atrofimizni o'rab turgan olam haqidagi axborotning katta qismi bilan ta'minlovchi eshitish persepsiyasi, persepsiyaning qolgan turi ko'rish, hid sezish, ta'm bilish va sezish turlariga nisbatan hukmronlik qiladi. Bundan tashqari, "video manbalar nafaqat inson hayot tarzini o'zgartirishi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatadi, uning ko'pgina hatti-harakatlariga xukmronlik qiladi, balki uning bilimi va o'y-fikrlarining asosi bo'lib ham xizmat qiladi"

Eshitish – nafaqat eshitish mumkin bo'lgan simmetrik narsalar, balki eshitib bo'lmaydigan ya'ni asimmetriya, mavhum, vaholanki, insonning ichki dunyosini ham biluvchi eng kuchli quroldir: "...inson mavhum bo'lgan obyektlar – his-tuyg'u, yomonlik va yolg'onni, narsalarning va ishning mohiyatini bilishga qodir..."

"hear" so'zi – a) eshitish xissi yoki xarakati; b) eshitish tuyg'usini nozikligi yoki keskinligi (balandligi yaxshi); s) eshitish orqali yodida saqlab qolib, og'zaki tassavur qilish shu bilan birga ko'paytirish qobiliyati.

a) eshitish, tinglovchi; raxmdil va e'tibor berish (I was sorry to hear about your accident); b) xabardorlik, e'tibor (We had heard nothing for week, I was surprised to hear (that) he was married);

• biror voqea xaqida odamlar bilib bo'lgandan so'ng eshitadi. **News of his affair eventually reached her ears;**

• e'tibor bermaslik (*eshitmaslik, beparvolik, sovuqqonlik*).

Bundan tashqari, "silence, quietness" inikosidagi xaqiqatning ikkita salbiy ta'rifi juda foydali va neytral: *tovushsiz kulgi, sokin kecha, mayin shaboda, pinxona urushlar*. Biroq ularning ijobiy ekvivalentlarining ma'nosi; *shovqinli, shov-shuvli, shunchaki "akustik"* dan kamroq kabi ta'riflash mumkin. Bu esa inson eshitish xissi qorishiq xarakterda ekanidan dalolat beradi.

Yuqorida zikr etilgan ta'riflarni birinchisida eshitish xissi insoniyat xayotidagi eng muhim organlaridan biri sifatida xarakterlansa, ikkinchi ta'rifda esa eshitish layoqati yordamida aniqlanuvchi narsa yoki predmet kabi yordamchi komponentlarni ham qo'shaypti.

Eshitish layoqatini ko'pincha so'zlovchining diqqat markazida sezgining quyidagi vazifalarini ham aniqladik:

• borliqni tinglash; ingliz tilida: *appreciation, attention, auricle, consideration, discrimination, hearing, heed, lug, notice, regard*; o'zbek tilida: *eshitish, bilish, diqqat, ko'rib chiqish, kamsitish*.

- tovushni idrok etish; ingliz tilida: *hark, hearken, heed, incline*; o'zbek tilida: *mayin, qalin, shovqin, anglash, tinglash, yuborishva h.k.*

- tovushlarni xilma-xilligi idrok etish; ingliz tilida: *Shout, bawl, call, cry, holler, roar, scream, shriek, whoop, yell, clamor, cry out, exclaim, halloo, uproar, vociferate*; o'zbek tilida: *baqirmoq, chaqirmoq, yig'lamoq, qichqirmoq, qichqirmoq, g'alayon, shov-shuv, so'kish, qarg'ish, tanbeh, maqtash va h.k.*

- tovushlarga ajratishni idrok etish; ingliz tilida: *the voice of humanity, the sounds of animals and birds, natural phenomena and sounds of objects*; o'zbek tilida: *insonovozi, hayvonlar va qushlarning tovushlari, tabiat hodisalari va narsalarning tovushlariva h.k.*

- tibbiy uskunalar ishtirokini idrok etish; ingliz tilida: *phonendoscope, headphones (hearing aid for heart and lung movements)*; o'zbek tilida: *quloqchin, eshitish aslaxasi (tibbiyotda)* kabilarni aytimiz mumkin.

Qolgan hollarda ushbu a'zo bajaradigan vazifalarga e'tibor qilinadi: *pinna, lobe, tympanic, membrane, incus, malleus, tympanum, stapes, vestibule, cochlea, semicircular canals, auditory nerve, eustachian tube, auditory meatus*; o'zbek tilida: *eshitish nervi, naychasi, eshitish go'shti, lakatr, pardava h.k.*

Eshitish layoqati insonga narsalarni eshitib, ularga nomlashdan tashqari, balki insonga tashqi olamni to'laqonli tarzda tinglab, bilib olishida o'ziga xos instrument (vosita) vazifasini bajarayapti.

Eshitish layoqati ikki xil (dualistik) xarakteri kishi diqqatini o'ziga tortadi. Birinchisi, olamni eshitib, tinglab, o'rganib tushunuvchi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchisi, inson ongidagi idrokining "predmetlik" va "muqim (o'zgarmas)lik", "belgilash (ko'rsatkich)" va ularni nomlovchi unsur sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, inson bir tomondan eshitib, fikrlab, tushunib, o'z hayotidagi o'rniga ega bo'lsa, ikkinchi bir holatiga qarab uning hayot tarzini, qanday tajribalar egasi bo'lganligini tushunish mumkin.

Eshitish xissi metaforik modellar bilan bir qatorda ingliz va o'zbek tillarida tinglash tipidagi metonimik modellarda ham qo'llaniladi. "*kimnidir nima deyishini qiziqish bilan kutib turish* – M.: o'zbek tilida: *Sizni yuzlab quloqlar (odamlar) eshitib turibdi*; ingliz tilida ham huddi shunday misollar mavjud bo'lib ularni quyidagi leksema bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir: *perception*; M.: *Her perception of the sound changed after she learned about acoustics* [10]. Yuqoridagi gaplarni biz ikki xil ma'noda tushinish mumkin bo'lib, ularni tinglovchi va so'zlovchi o'rtasidagimuloqot jarayonida vaziyatga qarab simmetrik yoki asimmetrik munosabatini ajratib olish mumkin.


Ingliz tilidagi yana shunday leksemalar borki, ularmuloqot jarayonida qo'llash ohangidan turli ma'nolarni ko'rish mumkin. Masalan: "*to listen*" "*be careful*" (*Eshit. Ehtiyot bo'l*) leksemasida "*to give (one's) ear to smb/smith*" pragmatik ma'nolari ifodalangan bo'lib, bunday holatdamazmunning o'lchovi so'zlovchi va tinglovchi uchungina ayon bo'ladi. Lekin "*to incline (one's) ear*" ushbu ma'noni kuchli, ta'sirchan tarzda ifoda etishligi bilan "diqqat bilan", "tinglamoq"dan farq qiladi.

Eshitish layoqatini simmetrik va asimmetrik munosabatini aniqlashda mazmun to'dalari (mikromaydon a'zolari) ma'nodoshlik aloqalariga kirishishi mumkin. Ma'noviy munosabatlar deganda nafaqat sinonimiya, omonimiya, antonimiya, balki giponimiya, partonimiya, graduonimiya, iyerarxonimiya kabilarni ham nazarda tutamiz.

O'zbek va ingliz tillarida ma'nodosh leksemalar to'dasiga quyidagi sinonim leksemalarni kiritamiz: ingliz tilida: *hear – listen to, ear-hark, hearken – harken, hallucinate-attention*; o'zbek tilida: *eshitmoq – tinglamoq, pichirlamoq – poylamoq, quloq solmoq – quloq tutmoq, tinchlanmoq-sukut saqlamoq, diqqat, e'tibor va h.k.*

Yuqoridagi kamida ikki a'zoli sinonim qatorlarni mikro paradigmalar deb hisoblaymiz. Sinonimik qator a'zolari umumiy ma'no o'xshashliklari barobarida uslubiy o'ziga xosliklarga ega bo'lishlari mumkin. Masalan, ingliz tildagi *"hearken"* ko'proq badiiy uslubga, *"attention"* ilmiy uslubga xos bo'lsa, *"hear – listento"* badiiy va so'zlashuv uslubiga, *"ear va hark"* rasmiy va ilmiy uslublarga xos sinonim leksemalardir.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, eshitish persepsiyasining simmetrik holatini ifodalovchi til omillari kognitiv jarayoni bosqichlarini chizma asosida ifodalashga harakat qilamiz.



Ma'noviy jihatdan bir-birlari bilan zidlashuv (antonimik (asimmetrik)) munosabatda bo'lgan leksemalarga quyidagilar misol bo'ladi: *to have a good attention – to have a bad attention, deafness, silence, quietness, throw/toss out on (one's) ear – prick up (one's) ears, qulog'i ding-qulog'i qar, kar, sukut, qulog'iga kirmoq-qulog'iga kirmaslik* va boshqalar.

Morfologik tuzilishi va yozuvdagi ifodasi bir xil, lekin turli ma'nolarni anglatuvchi eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarni omonim leksemalar deb ataymiz:

Shuningdek, o'zbek tilida ma'lum maqsadga yo'naltirilgan simmetrik va asimmetrik faoliyati so'zlovchining maqsdlari asosida belgilanadi. Simmetrik va asimmetrik munosabatlarda leksemalar yoki gaplar verbal va noverbal xarakterda bo'lishi mumkin. Noverbal xarakterdagi nutq (so'lashuv) tinglovchiga aniq bir maqsadli informatsiya bermaydi, balki suhbatdosh bilan bo'ladigan salom-alik, hol-ahvol so'rashuvi yoki ob-havo haqidagi ma'lumotlardan tashkil topadi va ular suhbatdosh bilan kontakt o'rnatib olish uchun xizmat qiladi. (Masalan, – *"Eshityapsizmi?, – Yomon emas., – Pastmi? – Durust kabi).*

Verbal xarakterdagi nutq tinglovchiga biron-bir ma'lumot (xabar) yetkazish yoki undan ana shunday xabarni olishga qaratilgan bo'ladi. Ular oddiy xabarni anglatishi (*Tingla.*) buyruq, va'da yoki iltimos (*eshiting*)ni yoki savolni ifodalashi mumkin (*Bu yerdan eshitib bo'lmaydimi?*).

Eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarning semantik ma'nosi bilan bir qatorda aytilgan gap (fikir) o'zining pragmatik ma'nosiga ega, ya'ni pragmatik vazifani ham bajaradi. Masalan, navbatda turgan kishiing yonida turgan kishiga aytgan *"Menga eshiting! – Listen me!"* degan gapi ortida vaziyatga ko'ra *"Meni tushunishga xarakat qiling– Please understand me"* degan ma'no ham anglashiladi. Bu uning asimmetrik munosabatdan saqlanib simmetrik munosabatga o'tish xodisasidir.

Ingliz va o'zbek tillaridagi eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalar gaplarda asimmetrik munosabatdan funksional-pragmatik ma'nosiga to'la mos tushmaydigan holatlar ham uchrab turadi. Masalan, "*Eshitmaysizmi? – Can you hear me?*"Gaplariga e'tibor bersangiz"*Gapirmang! – Don't speak!*" gaplarining ma'nosiyana asimmetrik munosabatni taqozo qiladi.

Bunday tipdagi gaplar lisoniy, mantiqiy asosda, nutq vaziyati taqozosi bilan bog'liq holda hosil bo'ladi. Masalan: *Uning qulog'i bormi? – U gap uqmas.* Bu gapda lingvistik presuppozitsiya o'rin olayapti, ya'ni ikki iboraning sinonimik qatori hosil bo'layapti.

Ingliz tilida xam shunday o'zining semantik ma'nosi bilan bir qatorda lingvistik ma'nosiga ega, ya'ni pragmatik vazifani ham bajaradigan gaplar talaygina. Masalan, navbatda turgan kishiing yonida turgan kishiga aytgan "*now you are listening*" degan gapi ortida vaziyatga ko'ra "*Meni o'zi eshityapsizmi?*" degan ma'no ham anglashiladi. Bu uning presuppozitsion ma'nosidir.

Gapning semantik ma'nosi uning funksional-pragmatik ma'nosiga to'la mos tushmaydigan holatlar ham uchrab turadi. Masalan, *Close the door!* gapi ma'nosini "*bu yer juda shovqin bo'lib ketdi*" degan ma'noni taqozo qiladi.

Bunday tipdagi gaplar lisoniy, mantiqiy asosda, nutq vaziyati taqozosi bilan bog'liq holda hosil bo'ladi. Masalan: *Does he not hear? – He is deaf.* Bu gapda lingvistik presuppozitsiya o'rin olayapti, ya'ni ikki iboraning sinonimik qatori hosil bo'layapti.

O'zbek tilida ham "*Qachon eshitding? – 2019-yilda e'lon qilindi.*" Bu gapda mantiqiy presuppozitsiya hodisasi o'rin olayapti, ya'ni yangilikni yil asosida aniqlanyapti.

– *Qulog'ingiz bitkanmi?* Bu gapda *Men sizga gapiryapman* ma'nosi anglashilayapti, ya'ni situativ presuppozitsiya hodisasi kuzatilayapti.

Biron narsaning yetishmayotgani yoki kamligi haqidagi eslatma o'sha yetishmayotgan narsani to'ldirib qo'yish zarurati haqidagi istakni ifodalashi mumkin. Masalan: *Quloqlashib turing* gapida *Sog'ligidan xabar olib turing* degan ma'no ifodalanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida leksik birlik sifatida o'zining semantik imkoniyatiga ega ekanligidan kelib chiqqan holda, har qanday alohida olingan tip konkret ma'lum bir umum tushunchani ifodalaganidek, biz endi eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarning semantik maydoni konstituentlari lingvokognitiv ta'rifini shakllantirishimizga yetarli asos bor deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqorida sanab o'tilgan eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarni tillardagi mavjud simmetrik va asimmetrik munosabatini aniqlashga harakat qidik, keyin esa ularni kognitiv tipologik jihatdan kiyoslashga, ularning kvantitativ va kvalitativ tipologik tabiatini ochib berishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saussure, F. (1916). *Course in General Linguistics*. McGraw-Hill. (O'zbek va ingliz tillaridagi simmetrik va asimmetrik munosabatlarni tushunishda yordam beradigan umumiy lingvistik tushunchalar.

2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. (Ko'rish sezgisining metaforik ifodalari, ingliz va o'zbek tillaridagi farq va o'xshashliklar.)

3. Kirk, J. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Edinburgh University Press. (Ko'rish sezgisi va uning tilshunoslikdagi rolini, ayniqsa semantika nuqtai nazaridan tahlil qilish.)

4. Baxtiyorov, S. (2020). O'zbek tilida semantik leksemalar va ularning ta'rifi. Toshkent: Fan. (O'zbek tilidagi semantik leksemalar va ko'rish sezgisini ifodalovchi terminlar.)
5. Taylor, J. R. (2003). Linguistic Categorization: Prototypes in Linguistic Theory. Oxford University Press. (Ingliz va o'zbek tillaridagi ko'rish sezgisiga doir leksikal kategoriyalarni tahlil qilish.)
6. Jezek, E. (2007). Semantics: A Cognitive Account of Meaning. Oxford University Press. (Semantikaning kognitiv yondoshuviga asoslanib, ko'rish sezgisi va uning ifodalari tahlil qilinadi.)
7. Muminov, O. (2015). O'zbek tilida obrazli ifodalarning semantik tahlili. Toshkent: Akademnashr. (Ko'rish sezgisini ifodalovchi obrazli ifodalarning o'zbek tilidagi tahlili.)